

12 «10» 2022 yil.

**396-14-199-XT/2022**

**son**

Mirobod tuman Xalq ta'lifi bo'limi nomidan Nizom asosida ish yurituvchi mudir Sh.A.Bekchanov bundan keyin "Buyurtmachi" deb yuritiladi, bir tomondan va "Great Progress Trade" MCHJ nomidan Nizom asosida faoliyat olib boruvchi direktor D.X.Axmedov, bundan keyin "Pudratchi" deb yuritiladi, bundan keyin birgalikda "Tomonlar" deb yuritiladi, ushbu shartnomani quyidagicha haqida tuzdilar:

### **I. SHARTNOMA PREDMETI**

**1.1. "Buyurtmachi" ko'rsatma beradi va "Pudratchi" quyidagi ishlarni bajarish majburiyatini oladi:**

Toshkent shahar Mirobod tumanidagi 94-sonli mакtabning tom qismini joriy ta'mirlash ishlarni (keyingi o'rnlarda ishlarni deb yuritiladi) bajaradi.

### **II. ISHLARNING NARXI VA TO'LOV TARTIBI**

**2.1. Shartnomaning umumiy summasi: 500 000 000 (Besh yuz million) so'mni QQS bilan tashkil etadi va ushbu shartnomani uchun loyiha-smeta hujjatlari bilan belgilanadi.**

**2.2. Mazkur shartnomani Tomonlar tarafidan imzolanib, Moliya vazirligi G'aznachilik bo'limidan ro'yhatdan o'tgan kundan boshlab 10 (o'n) kun ichida Buyurtmachi Pudratchiga joriy narxlarda ishlash uchun mazkur shartnomaning umumiy summasining 30% miqdorida avans to'laydi va ushbu avans 150 000 000 (Bir yuz ellik million) so'mni tashkil etadi.**

**2.3. Bajarilgan ishlarni uchun qolgan 70% miqdoridagi to'lovlar Pudratchi tomonidan mazkur shartnomaning 1.1. bandiga muvofiq ishlarni to'liq tugatilganidan keyin va Tomonlar tarafidan bajarilgan ishlarni akti imzolaganidan keyin to'lanadi.**

**2.4. Oldindan to'lov (avans) Pudratchining hisobvarag'iga o'tkazilganidan so'ng, shartnomaning umumiy summasi va bajarilgan ishlarning qiymati shartnomani to'liq bajarilgunga qadar o'zgarishsiz qoladi.**

**2.5. Shartnomaning qiymati tasdiqlovchi hujjatlari va hisob-kitoblarni taqdim etgan holda xarajatlar o'zgarishiga qarab o'zgartirilishi mumkin.**

**2.6. Eng kam oylik ish haqi miqdorini o'zgartirishda, mashina va mexanizmlarni ishlatish narxini o'zgartirishda, transport xarajatlarini o'zgartirishda, elektr va issiqlik energiyasiga tariflarni o'zgartirishda Prezident va boshqa siyosatchilarning qarorlariga muvofiq shartnomani qiymati mutanosib ravishda o'zgartirilishi kerak.**

### **III. ISHLARNI TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI**

**3.1. Ishlarni bajarish muddati "Pudratchi" hisobvarag'iga oldindan to'lov summasi (avans) kelib tushgan kundan boshlab 50 (oltmis) kunni tashkil etadi.**

**3.2. Ish tugagandan so'ng "Pudratchi" 5 (besh) kun ichida "Buyurtmachi" ga ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasini taqdim etadi.**

**3.3. "Buyurtmachi" dalolatnomani olgan kundan boshlab 5 (besh) kun ichida dalolatnomani imzolashi yoki ishni qabul qilishning asoslantirilgan rad etishini yuborishi shart.**

**3.4. Asosan rad etilgan taqdirda, Tomonlar "Pudratchi" hisobidan amalga oshiriladigan zaruriy takomillashtirishlar ro'yxati bilan ikki tomonlama dalolatnoma tuzadilar.**

#### **IV. ISH SIFATI**

**4.1. "Pudratchi" tomonidan bajariladigan ishlarning sifati O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tegishli texnik talablar va standartlarga javob berishi kerak.**

**4.2. "Pudratchi" tomonidan bajariladigan ishlarning (muhandislik tizimlari, asbob-uskunalar, materiallar) kafolatli muddati ishlar tugallangan obyektni qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagan kundan boshlab 12 (o'n ikki) oy etib belgilanadi.**

#### **V. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI**

**5.1. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmagan taqdirda aybdor taraf O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va 1998-yil 28-avgustdag'i "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi 670-Islonli qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.**

#### **VI. BOSHQA SHARTLAR**

**6.1. "Pudratchi" loyiha-smeta hujjatlari asosida ishlarni amalga oshiradi.**

**6.2. Buyurtmachi mazkur shartnomaning II-bo'limiga muvofiq to'lovlarini amalga oshiradi.**

**6.2. Barcha qo'shimchalar, o'zgartirishlar va qo'shimchalar ushbu Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi va Tomonlar tomonidan imzolangan taqdirda amal qiladi.**

**6.3. Buyurtmachi Pudratchining faoliyatiga aralashmagan holda istalgan vaqtida ishning borishini va sifatini tekshirishga haqli.**

#### **VII. SHARTNOMANI BEKOR QILISH**

##### **7.1. Buyurtmachi:**

**- shartnoma kuchga kirgandan keyin qurilishning boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'Imagan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;**

**- ishlarni tugallashning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga kechiktirilgan holda,**

**- pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish meyorlari va qoidalari nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;**

**- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.**

##### **7.2. Pudratchi:**

**- ishlarning bajarilishi Pudratchiga bog'liq bo'Imagan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatga to'xtatib qo'yilganda;**

- buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

7.3. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish obyekti bir oy muddatda Buyurtmachiga topshiriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini Pudratchiga to'laydi.

7.4. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan Tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi Tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

7.5. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

7.6. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

### **VIII. FAVQULODDA HOLATLAR (FORS MAJOR)**

8.1. Urush, qo'zg'olon, sabotaj, ish tashlashlar, tabiiy ofatlar kabi fors-major holatlari yuzaga kelganda tomonlarning hech biri javobgar bo'lmaydi.

8.2. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liqbajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

8.3. Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtda mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.4. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oyda ko'p vaqtda cho'zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rinishini muhokama qiladilar.

8.5. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

8.6. Fors-major holatlari yuzaga kelganligi va ularning amal qilish muddati vakolatli organlar tomonidan berilgan guvohnomalardir.

### **IX. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI**

9.1. Tomonlar yuzaga kelgan ziddiyatli vaziyatlarni muzokaralar yo'li bilan hal qilish uchun barcha choralar ko'radilar. Agar kelishuvga erishishning iloji bo'limasa, kelishmovchiliklar Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudiga ko'rib chiqish uchun kiritiladi.

9.2. Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudining qarori har bir Tomon uchun yakuniy majburiyat hisoblanadi.

### **X. KORRUPSIYAGA KARSHI KURASHISH BO'YICHA ASOSIY SHARTLAR**

10.1. Taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar. Shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va'da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, ya'ni Mirobod tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi xodimi o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergen shaxsning

manfaatlarini ko‘zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Tomonlar ushbu harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha choralar ko‘rilishiga kafolat beradi.

## XI. YAKUNIY QOIDALAR

11.1. Mazkur shartnama tomonlar tarafidan imzolanib, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi tomonidan ro‘yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022-yil 31-dekabrgacha amal qiladi.

11.2. Mazkur shartnama bir xil yuridik kuchga ega bo‘lgan 2 (ikki) nusxada tuziladi va Tomonlarga saqlash uchun bir nusxadan beriladi.

11.3. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari normalari qo‘llaniladi.

## XII. TOMONLARNING MANZILLARI "PUDRATCHI" "BUYURTMACHI"

"Great Progress Trade" MCHJ Mirobo tumani XTB

Toshkent sh., ko'ch. Maximquli-136 Mirobod ko'chasi 8 uy

Tel. +99895-170-40-23 Tel:71-256-30-47

r/s : 2020 8000 6047 6604 2001 r/s: 23402000300100001010

ATIBda "Mikrokreditbank  
Qorasaroq filiali.  
MFO № 01147" "XKKM Markaziy bank  
boshqarma  
MFO № 00014" bosh

STIR No 301099864 STIR No 201534627 201122919  
OKED 41202 ga tuyoviq kod I/s:100022860262737092100075036

Direktor Hujjat D.X.Axmedov Mudir \_\_\_\_\_

Hujjat elektron raqamli imzo orqali imzolangan.



Elektron raqamli imzoning haqiqiyigini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.

|                       |                             |
|-----------------------|-----------------------------|
| Imzolovchi<br>F.I.SH. | SHERZOD BEKCHANOV ALIMOVICH |
| Imzolangan sana       | 12.10.2022 13:53            |
| Hujjat kodi           | QU0107334008                |

Hulosa kodi

FB8666654813



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI

TOSHKENT SHAHAR ADLIYA BOSHQARMASI

MIROBOD TUMAN ADLIYA BO'LIMI

YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH MARKAZI

100072, Toshkent shahar, Mirobod tumani, A.Fitrat ko'chasi, 40 A-uy

el. pochta: mirobodt.yurmarkaz@adliya.uz

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

FB8666654813

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: Toshkent shahar Mirobod tumanidagi 94-sonli maktabning tom qismini joriy ta'mirlash. (Lot No 22110012156380)
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Mirobod tumani xalq ta'limi tomonidan 10.10.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Mirobod tuman  
yuridik markaz  
bosh yuristkonsulti:



J.I.BOIROV

12.10.2022